

**OILAVIY ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH.ZO'RAVONLIK VA TAZYIQDAN
HIMOYALISHNING YANGI HUQUQIY MEKANIZMLARI****Ibragimova Gulsanam Quvonchovna**

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20284435>

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaviy (maishiy) zo'ravonlikka qarshi kurashishning milliy qonunchilikdagi yangi huquqiy asoslari tahlil qilingan. Xususan, tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish mexanizmlari hamda oilada huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan kuchaytirilgan ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralari yoritilgan. Shuningdek, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini ishonchli ta'minlashga qaratilgan huquqiy institutlar, xususan, himoya orderining amaliy ahamiyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: jinoiy javobgarlik, himoya orderi, huquqiy mexanizm, xotin-qizlar va bolalar huquqlari, profilaktika.

Oila jamiyatning poydevori hisoblanadi. Bugungi kunda oilaviy zo'ravonlik va tazyiqlarga qarshi kurashish, inson huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, uning har bir a'zosi o'zini xavfsiz va himoyalangan his etishi shart. Afsuski, oilalarda uchrayotgan ma'naviy va jismoniy tazyiqlar nafaqat shaxsning ruhiy salomatligiga putur yetkazadi, balki jamiyat barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, ayrim oilalarda uchrayotgan maishiy zo'ravonlik holatlari nafaqat shaxs huquqlari va erkinliklarining qo'pol ravishda buzilishiga, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligiga ham jiddiy putur yetkazadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish, inson qadr-qimmatini ulug'lash va oila institutini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda qonunchilik bazasining takomillashuvi muhim qadam bo'ldi. Ilgari faqat jismoniy zo'ravonlik holatlari jazolangan bo'lsa, endilikda oila-turmush doirasida sodir etilgan **ruhiy va iqtisodiy zo'ravonlik** uchun ham qat'iy ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu huquqiy o'zgarishlar jabrlanuvchilarni (xotin-qizlar va voyaga yetmaganlarni) kompleks himoya qilish imkonini bermoqda.

Tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishning eng ta'sirchan mexanizmlaridan biri bu — himoya orderidir. Ushbu hujjat jabrlanuvchiga nisbatan zo'ravonlik sodir etishni taqiqlovchi, tazyiq o'tkazayotgan shaxsning xulq-atvoriga cheklovlar qo'yuvchi muhim huquqiy vositadir. Qonunchilikka ko'ra, himoya orderi shartlari va muddatlari uzaytirilgan bo'lib, uni qo'llash jarayonida jabrlanuvchiga davlat organlari tomonidan bevosita tezkor psixologik, tibbiy va huquqiy yordam ko'rsatilishi kafolatlanadi.

Yangi huquqiy mexanizmlarning tub mohiyati shundaki, endilikda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan yoki jabrlanish xavfi ostida bo'lgan shaxslarga maxsus himoya orderisiz ham ijtimoiy, psixologik va yuridik xizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, zo'ravonlikka uchragan ayollarga yarashuv muddatisiz ajrashish imkoniyatlarini yaratish masalalari ham amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu esa ayollarning huquqiy ongi oshishiga va jamiyatda o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi.

Oilaviy zoʻravonlikka qarshi kurashish nafaqat huquq-tartibot idoralarining, balki butun jamiyatning vazifasidir. Zoʻravonlik va tazyiqdan himoya qilishning yangi huquqiy mexanizmlari, jazolarning muqarrarligi va qurbonlarga koʻrsatilayotgan manzilli ijtimoiy yordamlar kelajakda oilalardagi muhitni yaxshilashga hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi.

Soʻnggi yillarda oilaviy zoʻravonlikni oldini olish maqsadida qonunchilik bazasi sezilarli darajada mustahkamlandi va yangi huquqiy mexanizmlar joriy etildi. Bu borada eng muhim qadamlardan biri — **himoya orderi** institutining amaliyotga tatbiq etilishidir. Himoya orderi — bu tazyiq va zoʻravonlikdan jabrlangan shaxsga davlat himoyasini taqdim etuvchi, huquqbuzarga nisbatan muayyan majburiyatlar yuklovchi rasmiy davlat hujjatidir. Ushbu mexanizm quyidagi muhim jihatlari bilan ajralib turadi: **Tezkorlik:** Himoya orderi tazyiq yoki zoʻravonlik sodir etilgan (yoki sodir etish xavfi mavjud boʻlgan) vaqtda ichki ishlar organlari tomonidan darhol rasmiylashtiriladi. **Cheklovlar:** Order huquqbuzarga jabrlanuvchi bilan muloqot qilishni, uni taʼqib etishni, bir xonada yashashni yoki u bilan birga ovqatlanishni maʼlum muddatga taqiqlashi mumkin.

Yangi qonunchilikka koʻra, oilaviy (maishiy) zoʻravonlik uchun maʼmuriy va jinoiy javobgarlik choralari yanada kuchaytirildi. Zoʻravonlik sodir etgan shaxslarning jazodan qutilib qolish holatlariga barham berish maqsadida jinoyat kodeksiga maxsus moddalar kiritildi. Endilikda jismoniy tazyiq oʻtkazish, shaxsni qadr-qimmatini kamsitish yoki ruhiy bosim oʻtkazish qonun oldida qatʼiy jazolanadi. Bu esa huquqbuzarlarda profilaktik javobgarlik hissini oshiradi. Himoya qilish mexanizmlari nafaqat tajovuzkorni jazolashni, balki jabrlanganlarga yordam berishni ham oʻz ichiga oladi. Hozirgi kunda tazyiq va zoʻravonlikdan jabr koʻrgan shaxslarga huquqiy, psixologik, tibbiy va ijtimoiy yordam koʻrsatuvchi maxsus reabilitatsiya markazlari faoliyat yuritmoqda. Bu maskanlar jabrlanuvchilarga ogʻir vaziyatlarni yengib oʻtishga, jamiyatga moslashishga va oʻz mustaqil hayotini qayta qurishga yordam beradi. Oilaviy zoʻravonlikka qarshi kurashishda faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning harakatlari yetarli emas. Buning uchun jamiyatda «zoʻravonlikka murossasiz» muhitni shakllantirish talab etiladi. Mahalla faollari, taʼlim muassasalari va ommaviy axborot vositalari orqali oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish, nizolarni tinch yoʻl bilan hal etish koʻnikmalarini targʻib qilish muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy zoʻravonlik va tazyiqlarga qarshi kurashishning yangi huquqiy mexanizmlari inson huquqlarini taʼminlash va jamiyat farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Himoya orderining joriy etilishi, jazo choralarining muqarrarligi hamda jabrlanuvchilarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash tizimi oilalarda sogʻlom muhitni saqlab qolishning ishonchli kafolati hisoblanadi. Zoʻravonlikka qarshi birgalikda kurashish, har bir insonning tinch va xavfsiz yashash huquqini taʼminlaydi.

Ayolga nisbatan oilaviy yoki maishiy zoʻravonlik - bu nafaqat insonning asosiy huquqlari buzilishi, balki jamiyatning sogʻligʻi, barqarorligi va xavfsizligiga tahdid soluvchi global ijtimoiy-huquqiy turdagi muammodir. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) maʼlumotlariga koʻra, "dunyo miqyosida har uchinchi ayol hayoti davomida sherigi tomonidan jismoniy tazyiqqa duch keladi. Turmush qurgan ayollarning 30 foizi hamrohi tomonidan zoʻravonlik holatlariga duch kelganini maʼlum qiladi, bu esa muammoning toʻliq holatini yaqqol koʻrsatadi. Afsuski, ayollar olimining 38 foizi ularning turmush oʻrtogʻi tomonidan sodir etiladi va zoʻravonlikka

duch kelgan ayollarning atigi 42 foizigina bu muammo haqida ochiq so'zlaydi. Zo'ravonlikning bu shakli ijtimoiy-iqtisodiy yoki madaniy chegaralarni tan olmaydi, turmush darajasi va demokratiyadan qat'i nazar, dunyoning barcha mamlakatlarida kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlash va ayollar huquqlarini himoya qilish davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. 2019-yilda "Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi zo'ravonlikka qarshi huquqiy kurashni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu Qonun zo'ravonlikning oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo'yish, shuningdek, jabrlanganlarga huquqiy, ijtimoiy va boshqa yordam ko'rsatish tizimini mustahkamlashga qaratilgan muhim huquqiy asosdir. Biroq, mavjud huquqiy usullarni amaliy qo'llashda, ayniqsa, zo'ravonlik ishlari bo'yicha yarashuv jarayonini qo'llash va himoya tizimining samaradorligini oshirish borasida chuqur ilmiy asoslangan tahlilni talab etuvchi masalalar saqlanib qolmoqda. Ayolning zo'ravonlik sharoitida yarashuvga majburlanish ehtimoli va himoya turlarining to'liq ishlamasligi huquqiy davlat tamoyillariga zid keladi. Qonun ustuvorligi faqat jamiyatning barcha a'zolari teng himoyalangan va adolat ta'minlangan taqdirda gina to'liq amalga oshadi. O'zbekiston Respublikasida oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashning huquqiy mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida tahlil qilish ularning amaliy samaradorligini baholash hamda sud amaliyotini takomillashtirish yuzasidan aniq ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni qo'yish mumkin: birinchidan, Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining huquqiy mohiyatini va uning inson huquqlari tizimidagi o'rnini xalqaro hujjatlar asosida ochib berish. ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida belgilangan asosiy himoya mexanizmlarini tahlil qilish. Jinoyat ishlarida yarashuv komissiyasining oilaviy zo'ravonlik ishlaridagi qo'llanilishi va bu boradagi sud amaliyotini takomillashtirishga doir aniq takliflarni asoslash. Oilaviy zo'ravonlik huquqshunoslikda asosan to'rt asosiy turda talqin etiladi: jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy. O'zbekiston qonunchiligida bu turlarning e'tirof etilishi muhim qadam bo'lsa-da ularning har birini huquqiy jihatdan isbotlashning nazariy va amaliy murakkabliklari mavjud.

Ruhiy zo'ravonlik nafaqat tahdid balki doimiy psixologik nazoratni ham o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi. "Oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurash: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari"bu turdagi zo'ravonlikning ijtimoiy xavfliligi uning yashirin va uzoq muddatli ta'siri tufayli jismoniy zo'ravonlikdan kam emasligi ta'kidlanadi. Ruhiiy zo'ravonlikni isbotlash uchun sud psixologik ekspertizaning maqomini oshirish nazariy jihatdan muhim.

Oiladagi zo'ravonlik adolat tamoyillariga zid keladi va insonning asosiy huquqlarini buzadi. Falsafiy tahlil jamiyat nima uchun bunday huquqlar hatto oilada ham buzilmasligi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratishga intilishi kerakligini tushunishga yordam beradi. Inson hayotining qadri: zo'ravonlik inson hayotining oliy qadriyatini shubha ostiga qo'yadi. Falsafa zo'ravonlik jabrlanuvchining hayotini qanday qadrsizlantirishi, uning qadr-qimmatini yo'qotishi va hayot mazmunini yo'qotishiga olib kelishi mumkinligini o'rganadi. Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish ko'p bosqichli dasturlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi, masalan, maktab va

universitetlarda sog'lom munosabatlarga oid ma'rifiy kurslar, ijtimoiy normalarni o'zgartirish va qonunchilikni mustahkamlashga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari, shuningdek, jabrlanganlarni qo'llab-quyvatlash va jinoyatchilarni qonuniy javobgarlikka tortish. Jahon amaliyotida oiladagi zo'ravonlikning oldini olish muammosiga ikkita asosiy yondashuv mavjud: nizolarni hal qilish va oilani saqlashga qaratilgan restorativ, shu jumladan o'rtoqlik sudlari va majburiy tibbiy va psixologik yordam dasturlari va nizolashayotgan tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni to'xtatish orqali zo'ravonlik siklini buzishga qaratilgan jazolash. A.S.Arxiyova maqolasida oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurashning ba'zi dolzarb muammolarini, shuningdek, boshqa mamlakatlardagi shunga o'xshash muammolarni hal qilishda ijobiy tajribalarni o'rganadi. Unda oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurashning barcha bosqichlarida - oldini olishdan tortib, allaqachon sodir bo'lgan zo'ravonlik harakatlari uchun jinoiy javobgarlikgacha bo'lgan yo'llar o'rganiladi. Oilaviy zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha xalqaro tajriba jabrlanuvchilarni himoya qilishga va tajovuzkorlarni jazolashga qaratilgan qonunchilik choralari, shuningdek, jabrlanuvchilarni qo'llab-quyvatlash tizimlarini, jumladan, inqiroz markazlari va ishonch telefonlarini yaratishdan tashqari, zo'ravonlik qiluvchilar bilan ishlash va aholining xabardorligini oshirish bo'yicha ijtimoiy dasturlarni o'z ichiga oladi.

Oiladagi zo'ravonlik muammosi nafaqat O'zbekistonda, balki xorijda ham dolzarb masaladir. Jamiyat va hukumat zo'ravonlikdan xavotirda, shuning uchun ular jabrlanuvchilarga bu haqda xabar berishlari va psixologik va boshqa yordam olishlari uchun imkoniyatlar yaratmoqdalar. Misol uchun, Qo'shma Shtatlarda oilaviy zo'ravonlik qurbonlariga xabar berish uchun Nyu-York shahrida 1-800-621- HOPE ishonch telefoni ishlaydi. U kuniga 24 soat ishlaydi va operatorlar o'nta turli tilda (shu jumladan rus tilida) gaplashadi. Qo'ng'iroqlarga tajribali psixologlar javob berishadi, ularning asosiy maqsadi qo'ng'iroq qiluvchini tinglash va maslahat berishdir.

Buyuk Britaniyada oilaviy zo'ravonlik qurbonlari politsiya himoyasiga murojaat qilish imkoniyatiga ega va ular ko'rishi mumkin bo'lgan bir qator choralar mavjud. Masalan, politsiya zo'ravonlikda gumon gilingan shaxsni 48 soat davomida uyidan olib tashlashi mumkin. Politsiya, shuningdek, tajovuzkorning 28 kun davomida uyiga qaytishiga to'sqinlik qiluvchi himoya buyrug'ini olish uchun jinoiy sudga murojaat qilishi mumkin. Bu uydagi zo'ravonlik qurbonlari uchun uyni xavfsizroq qilish va ularga qo'shimcha yordam va himoya izlash imkoniyatini berishning bir usuli.

Jabrlanuvchilar, shuningdek, tajovuzkorga nisbatan ehtiyot chorasini qo'llash uchun fuqarolik sudiga murojaat qilishlari mumkin. Shvetsiyada oiladagi zo'ravonlik jinoyatlari ham davlat ayblovi sifatida tasniflanadi. Politsiya prokuror boshchiligida dastlabki tergov o'tkazishi shart va jabrlanuvchi ishning borishiga to'sqinlik qila olmaydi (masalan, shikoyatni qaytarib olish orqali). Dastlabki tergovni boshlash uchun prokuratura jinoyati sodir etilgan deb hisoblash uchun asoslar bo'lishi kerak. Bu shuni anglatadiki, jinoyat tarkibining mavjudligi haqidagi ma'lumotlar tergovni boshlash uchun yetarli. Misol uchun, yaqin kishi tomonidan ko'karishlar, yaralar yoki boshqa jarohatlarning mavjudligi ishni qo'zg'atish uchun asos bo'lishi mumkin.

Shvetsiya politsiyasi, shuningdek, qurbonning himoyaga muhtojligini aniqlash uchun tahdid va xavfni baholashni amalga oshiradi. Tahdidning jiddiyligiga qarab turli xil himoya

darajalari mavjud. Politsiya maslahat va himoya qilish uchun turli xil texnik vositalar bilan ta'minlashi mumkin (masalan, GPS-ni qo'llab-quvvatlaydigan favqulodda telefon va akustik signal). Jabrlanuvchiga xavfsizlik masalalari bo'yicha suhbatlashish uchun shaxsiy aloqachi ham taqdim etiladi. Oilaviy zo'ravonlik qurbonlari sudga murojaat qilganidan keyin ularni himoya qilish bo'yicha ijobiy tajribalar mavjud.

Masalan, Fransiyada ish materiallari va ikkala tomonning ko'rsatmalarini o'rganib chiqqandan so'ng, oila sudi sudyasi zo'ravonlik sodir bo'layotganligini aniqlasa, ular himoya qilish buyrug'i (e'tiborga olish taqiqi) chiqaradi va vaqtinchalik choralar ko'radi: bolalarni kim ushlab turishini, uydan kim foydalanishini va erkakka qanday moliyaviy majburiyatlarni belgilashni belgilaydi. Fransiya qonunchiligiga ko'ra, oila a'zolariga nisbatan oiladagi zo'ravonlik og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi va sodir etilgan jinoyatga qarab, qamoq jazosini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Misol uchun, xotinini o'ldirgan taqdirda, er jabrlanuvchi bilan nikohdan aloqasi bo'lgan taqdirda 30 yillik qamoq jazosiga emas, balki umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan.

O'zbekiston Respublikasida Ijtimoiy himoya milliy agentligiga zo'ravonlikdan jabrlanuvchi, shuningdek o'zlariga nisbatan zo'ravonlik sodir etish xavfi ostida bo'lgan bolalarni aniqlash asosiy vazifasidir.

Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish asosida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

- Milliy qonunchilikka "oilaviy zo'ravonlik" tushunchasini kiritish. Jinoyat huquqida oilaviy zo'ravonlikni alohida jinoyat sifatida tasniflash;

- Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka oid jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish. Masalan, Singapurda nomusga tegish jinoyati uchun 20 yilgacha ozodlik mahrum qilish jazosi belgilangan. Bizda esa ushbu holatda javobgarlik uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan belgilangan (O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi 118-modda, 2-xatboshi);

- Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarni himoya qilish, ularning reabilitatsiyasini amalga oshirishda faqatgina davlatga bo'ysunuvchi reabilitatsiya markazlaridan tashqari nodavlat notijorat shaklidagi inqiroz markazlari, vaqtinchalik boshpanalar tashkil etish. Bu bir tomondan markazlar va ulardagi joylar sonining ortishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan raqobat tufayli soha mutaxassislarida professionalizm kuchayadi;

- Ayollarni reabilitatsiya qilish markazlarining joylashgan joyi, unda boshpana topgan ayollar haqidagi ma'lumotlarning anonimligini ta'minlash;

- Reabilitatsiya qilish markazlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy aksiyalar, targ'ibot tadbirlarini o'tkazish;

- Tazyiq va zo'ravonlik holatlari bo'yicha interaktiv xarita yaratish. Dastlabki bosqichda ma'lum ma'muriy birlik (masalan Toshkent shahri) uchun pilot loyiha sifatida shakllantirish, xarita ma'lumotlarini avtomatik yangilanishini ta'minlash;

- Tazyiq va zo'ravonlik holatlarida xotin-qizlarning murojaat qilishi mumkin bo'lgan davlat va nodavlat tashkilotlari (kasalxonalar, ichki ishlar organlari, reabilitatsiya markazlari, prokuratura,

sud, NNT va boshqalar)ning manzili va telefon raqamlari, yordam berish shaklining yagona reestrini shakllantirish, internetda ochiq ma'lumot sifatida joylashtirish;

- Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo'yicha markazlarning internet saytini tashkil qilish, zo'ravonlikka uchragan ayollarning onlayn murojaat qilishi va ularni tegishli davlat idoralari, xizmatlariga onlayn yo'naltirish imkoniyatini yaratish;

- Xotin-qizlarning maishiy zo'ravonlik qurboniga aylanib qolishlarini oldini olish maqsadida tashkil etilgan "1146" qisqa raqamli Ishonch telefoni faoliyatini o'zbek va rus tillaridan tashqari, mahalliy aholining muloqot tillarida (qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman) olib borishini ta'minlash;

-Oilada tazyiq va zo'ravonlik holatlarining takrorlanmasligi, oilaviy-maishiy nizolarning tinch yo'l bilan hal bo'lishi uchun oilaviy maslahat xizmatlari yoki oilaviy munosabatlarida mediatsiya institutlarini joriy etish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashda huquqiy ta'lim zo'ravonlikka qarshi immunitetni shakllantiradi. Huquqiy bilimli jamiyatda oilaviy zo'ravonlikka nisbatan toqat qilib bo'lmas munosabat paydo bo'ladi va adolat tamoyillariga rioya qilish ta'minlanadi. Maqolada keltirilgan tahlillar va misollar shuni ko'rsatadiki, huquqiy ta'lim va tarbiya oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega. Huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish orqali jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan muvofiqlik munosabati shakllanadi, bu esa oilaviy zo'ravonlik holatlarining kamayishiga olib keladi. Shuningdek, xalqaro va milliy tajribalarni o'rganish va tatbiq etish orqali huquqiy ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Bu borada davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va ta'lim muassasalarining hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibrohimov, F. A. (2020). "Ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim-tarbiyaning zarurati" *Academic Research in Educational Sciences*, 1(1), 362-368.
2. Po'latova, Z. (2023). "Huquq fanini o'qitishda ilmiy adabiyotlardan foydalanishning samaradorligi." *Talqin va tadqiqotlar*, 8, 25-28.
3. Sadriddinov, A. S. (2022). "Ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya." *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 102-108.
4. Xolnazarova, D. M. (2024). "Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishni takomillashtirish." *Elita.uz - Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1).
5. Komiljonov, Sh. Q. (2024). "Huquqbuzarlikka beparvolik – jinoyatga yo'l." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 20(3), 33-37.
6. in-academy.uz
7. ihma.uz
8. undp.org
9. lex.uz